



Kenjaeva Dilrabo Rominovna

JAMIYATDA BARQAROR SIYOSATNI TA'MINLASH JARAYONIDA MAFKURAVIY TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI.

Kenjaeva Dilrabo Rominovna
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotasiya: Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Siyosiy-mafkuraviy sohaning globallashuvi milliy ma'naviyatga katta ta'sir o'tkazadi. Ushbu maqolada milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish, tarixni milliy rux bilan o'qitish orqali yoshlarda mafkuraviy tafakkurni shakllantirish masalalari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tafakkur; jamiyatning ma'naviy hayoti; ma'naviy yangilanish; globallashuv; jamiyat ma'naviyatiga taxdid; milliy g'oya; tarixiy saboq; milliy qadriyatlar; umuminsoniy qadriyatlar; adabiyot va san'at.

Аннотация: Процессы глобализации создают для человечества неожиданные проблемы наряду с новыми возможностями. Глобализация политико-идеологической сферы оказывает большое влияние на национальную духовность. В данной статье с философской точки зрения анализируется проблема формирования у молодёжи идеологического мышления путём пропаганды национальной идеи, повышения эффективности духовно-просветительской работы, дальнейшего развития литературы и чтения в обществе, преподавания истории в национальном духе.

Ключевые слова: мышление; духовная жизнь общества; духовное обновление; глобализация; угроза духовности общества; национальная идея; исторический опыт, национальные ценности; общечеловеческие ценности; литература и искусство.

Abstract: Globalization processes create unexpected problems for humanity along with new opportunities. The globalization of the political-ideological sphere has a great influence on national spirituality. This article analyzes from a philosophical point of view the issue of shaping ideological thinking among young people through the promotion of the national idea, increasing the effectiveness of spiritual and educational work, further developing literature and reading in society, and teaching history in a national spirit.

Keywords: thinking; spiritual life of society; spiritual renewal; globalization; threat to the spirituality of society; national idea; historical experience; national values; universal values; literature and art.

Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar siyosatchilar, psixologlar, faylasuflar va pedagoglarlar muhokama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy - xuquqiy, psixologik, ma'naviy- madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan ichki va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda "globallashuv" tushunchasi fransuzcha (global) umumiy va lotincha globus – shar so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, Yer yuziga oid ,butun Yer sharini qamrab oluvchi: ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi: jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi. Globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo'layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishidir.

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin. [1,176.b.]. Axborot –kommunikasiya sohasining globallashuvi natijasida dunyo hamjamiyati yer sharining ixtiyoriy nuqtasidan axborot qabul qilish va uzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu borada keyingi yillarda telefon, internet tarmoqlari, shuningdek, radio va televidenie vositalari keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Aytish mumkinki, O'zbekistonda bugungi kunda deyarlik barcha oilalarda uyali telefon, internet va komp'yuterlardan foydalanish turmush tarziga aylangan.

Bugungi kunda madaniy - ma'naviy mahsulotlar, san'at asarlari asosan AQSh, Yevropa mamlakatlari ma'naviy hayotini keng targ'ib etmoqda desak mubolag'a bo'lmas. Bu borada taniqli amerikalik siyosatshunos Z.Bzejnskiy " Amerika televizion dasturlari va fil'mlari bu sohada dunyo bozorining deyarli to'rt dan uch qismini egallaydi. Amerika ommabop musiqasi eng yetakchi pog'onani egallagan, internet tili – inglizcha, global komp'ter tarmog'idagi so'zlashishning asosiy qismi ham amerikacha va "global suhbatlarga" o'z ta'sirini o'tkazmoqda", deb ta'kidlaydi. [2,39.b.]. Bulardan, AQSh, Yevropa mamlakatlari ma'naviyati ekspansiyasining naqadar avj olganligiga amin bo'lish mumkin.

M.Veberning aforistik tarzda " Madaniy vahshiylik – barcha vahshiyliklardan yomonroqdir", - degan so'zlari aynan "Ommaviy madaniyatga tegishlidir." "Ommaviy madaniyat" mahsulotlarining maqsadi hayotni xaqqoniy tasvirlash, kishilarni hayotiy muammolarni tahlil qilishga o'rgatish va shuning asosida o'zini anglash hamda hayotiy qiyinchiliklarni uddasidan chiqishni emas, balki bugungi real voqelikdan yiroq bo'lgan o'ziga xos psixologik olamni shakllantirishdan iborat. Achinarlisi shundaki, shaxsiy dunyoqarashga, individual badiiy – estetik didga to'la ega bo'lmagan yoshlar psixologiyasiga bu kabi past saviyali asarlar salbiy ta'sir etadi. Natijada o'tkinchi xavaslar, turli xil

daxshat, ur – surlarni, joxillik, zo‘ravonlikni namoyish etuvchi filmlar ustun kelishi yoshlar o‘rtasida asl san‘at asarlariga bo‘lgan qiziqishni keskin kamaytirmoqda. Yoshlarni har taraflama o‘rab turgan ommaviy psixoz, epidemiya kabi minglarcha ovoz bilan reklamalar ta‘sirida ham jalb qilishga xarakat qilinmoqda. Bunday jarayon albatta yoshlar ma‘naviyatiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi.

Madaniyatning globallashuv jarayonini bu sohalarda ham bozor munosabatlarining, xususan san‘at industriyasi, shou – biznesning shakllanishi iste‘molchi talabiga ko‘ra mahsulotni taklif qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu sohalarda savdo - sotiq munosabatlarining shakllanishi, butun dunyo bo‘yicha “tomosha industriyasini” yuzaga keltirdi. Uning ta‘sirida “ermak va tomoshalar” shiori ostida iste‘molchilik ruhiyati avj oldirilayapti. Madaniyat sohasida iste‘molchilik kayfiyatining shakllanishi milliy ma‘naviyatning takomillashib, yanada boyib borishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Siyosiy – mafkuraviy sohalarining globallashuvi, ayniqsa, milliy ma‘naviyatga katta ta‘sir o‘tkazadi. Bu jarayonning eng muxim xususiyatlaridan biri turli terroristik, ekstremistik guruhlarining g‘oyaviy - mafkuraviy zabt etish maqsadining g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashib ketganidir. Darhaqiqat, turli terroristik, ekstremistik guruhlarining g‘oyaviy - mafkuraviy xurujlari, ularning faoliyatidan, ya‘ni ma‘lum xududda siyosiy - iqtisodiy vaziyatni izdan chiqishidan ayrim guruhlarining manfaatdorligi dunyo siyosiy - mafkuraviy manzarasini tubdan o‘zgartirib yubordi. G‘oyaviy taxdidlar. Bu turga kiruvchi taxdidlar inson ma‘naviy olamida yot g‘oyalar, qarashlar va maqsad muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda ko‘pgina zamondosh tatqiqotchilarimiz g‘oyaviy tahdidlarning quyidagi ko‘rinishlarini sanab o‘tmoqdalar: axloqiy buzuvchilik, zo‘ravonlik, egosentrizm, individualizm, “Ommaviy madaniyat”, milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, millatlararo nizolar keltirib chiqarishga urinish, iqtisodiy tanglik joriy qilish, qo‘shni davlatlarni bir – biriga qayrash, yoshlar ongini zaharlash. Bundan ko‘zlangan maqsad rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma‘naviy boyliklariga egalik qilishdir. Chunki g‘oyaviy taxdidlar oxir – oqibatda davlatni inqirozga olib keladi, nega deganda, buning natijasida fuqarolarda xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, hasad, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabi ijtimoiy- axloqiy illatlar kelib chiqadi. Natijada, milliy g‘oyaning mohiyatini tuliq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur kilib, bunga yuzaki qaraydiganlar soni ortadi. Shu bois O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasini ta‘kidlab o‘tib, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”, deydi. [3.].

Informasion taxdidlar. ”Bu turdagi taxdidlar insonning ijtimoiy ongini noto‘g‘ri shakllantirish va shu tariqa o‘zligiga ega bo‘lmagan olomonni tarkib toptirishni ko‘zlaydi. Bugungi kunda informasion taxdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda va uning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik

muammoni katta muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij - gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informasion taxdidlar – ba'zida axborot xuruji deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi". [4].

Darhaqiqat, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Terrorism, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi –ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”, deydi Shavkat Mirziyoev. Shuningdek, “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz,ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, deydi. Shavkat Mirziyoev. [5].

Xulosa qilib, ma'naviy taxdidlarning mazmun - mohiyati, ko'rinishlari va xususiyatlarini anglab olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Shunday ekan, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali jamiyatda vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish ruhini tarkib toptirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. И.А.Каримов.Юксак маънавият- енгилмас куч.Т.”Маънавият”2008.176 б.
2. З.Бжезинский. Великая шахматная доска.(Господство Америки и его геостратегические императивм).Перевод О.Ю.Уральской.-М.: Международные отношения,1998.-С.39.
3. <https://uz.sputniknews.ru/20210119/Shavkat-Mirziyev-nazval-glavnuyu-sut-ideologii-Uzbekistana-15822089.html> .
4. Жўраев Т. Миллий давлатчилик ва хавфсизлик.-Т.: “Академия”2007.
5. <https://uz.sputniknews.ru/20210119/Shavkat-Mirziyev-nazval-glavnuyu-sut-ideologii-Uzbekistana-15822089.html>.